

KUZGI YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING BOSHOQ STRUKTURASINI BAHOLASH

Ismoilov Voxid Isropilovich, q.x.f.f.d., (PhD)

ORCID: 0000-0002-5975-8196

Raxmanqulov Bektosh Ilashovich

ORCID: 0009-0009-5924-3318

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi

Annotatsiya. Maqolada kuzgi yumshoq bug'doy navlarining boshqoq strukturasini (boshqoq uzunligi, boshqoqdagi boshqoqchalar soni, bir boshqoqdagi donlar soni, boshqoqchadagi donlar soni) aniqlanib, eng yuqori natija beruvchi navlar aniqlanib ekish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Bug'doy, nav, boshqoq, don, hosil, boshqoqcha, Краснодар-99, Алексеевич, Asr, Vexa.

Abstract. The article identifies the spike structure of spring soft wheat varieties (spike length, number of spikelets per spike, number of grains per spike, and number of grains per spikelet) and provides recommendations for sowing the varieties that yield the best results

Keywords: wheat, variety, ear, grain, harvest, ear, Краснодар-99, Алексеевич, Asr, Vexa.

Kirish. Dunyoning bug'doy yetishtiruvchi mamlakatlarida kuzgi bug'doyning maqbul ekish va oziqlantirish muddat va me'yorlari hamda sug'orish tartiblarini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqlimning global o'zgarishida bug'doyning stress omillarga chidamli yangi nav va tizmalarini yaratish hamda o'ziga xos yetishtirish agrotadbirlarini takomillashtirish talab etilmoqda. Kuzgi bug'doy don hosilini va uning sifatini, ya'ni shishasimonligi, makaronbopligini oshirishga resurstejovchi, yuqori samarali texnologiyalarni qo'llash orqali erishish mumkin.

Respublikamizda mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida don yetishtirishni ko'paytirish, boshqoqli don ekinlari hosildorligini oshirishda sezilarli natijalarga erishildi, jumladan qisqa muddat ichida g'alla mustaqilligiga to'liq erishildi va bug'doyni import qiluvchi davlatdan eksport qiluvchi davlatga aylandi. Lekin, yumshoq bug'doyning intensiv tipdagi navlarini yaratish, ularni yetishtirish agroteknologiyasi, jumladan har bir yaratilgan navlarning biologik xususiyatlariga mos ravishda ekish va o'g'it me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Respublikani rivojlantirishga oid Harakatlar Strategiyasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo «...qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish...»ga alohida e'tibor berilgan. Bu borada bug'doy doniga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini hisobga olgan holda sug'oriladigan yerlarga mos navlarni tanlash, yaratish va yetishtirishning maqbul agroteknologiyalarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro SIMMYT va ICARDA ilmiy markazlari bilan o'zaro hamkorlikda g'allachilik va dukkakli ekinlarni ekishni rivojlantirish va bu turdagi ekinlar hosildorligini keskin oshirish niyatida keng ko'lamda ishlar olib borildi. Ushbu markazlardan 5000 ga yaqin nav, namuna va liniyalar olib kelinib, O'zbekiston g'alla va dukkakli don ekinlari ilmiy tadqiqot institutining G'allaorol filialida o'rganilib, tanlash ishlari olib borildi va o'zaro chatishtirish ishlari olib borilib, yumshoq bug'doyning G'ayrat, Do'stlik va Ishonch navlari yaratilib, Davlat nav sinash komissiyasiga topshirilgan [1].

M.Sattarov, I.Halimov [2] larning ta'kidlashlaricha, kuzgi bug'doyning "Polovchanka" navini gektariga 4,0 mln/dona hisobida ekib, ma'danli o'g'itlar $N_{180}P_{120}K_{90}$ kg/ga me'yorda

qo'llanilganda, o'simlikda boshqoq uzunligi 8,7 sm, boshqoqdagi don soni 44 dona, boshqoqdagi don og'irligi 1,47 grammni tashkil etgani holda, navni shu o'g'it me'yorida gektariga 5,0 mln/dona hisobida ekilganida, ushbu ko'rsatkichlar quyidagi ko'rinishda: boshqoq uzunligi 8,4 sm, boshqoqdagi don soni 43 dona, boshqoqdagi don og'irligi 1,46 grammni tashkil etgan.

A.Xorazmiy, Sh.Shodmonqulov [4] tadqiqotlarida mineral va mahalliy o'g'itlarni birgalikda qo'llash ($N_{100}P_{50}+20$ t/ga go'ng) natijasida tuproq tarkibidagi oziq elementlari 30-40% ga, bug'doy balandligi 20-40 sm ga oshib, boshqoq uzunligi 3-5 sm ga uzayganligi, boshqoqdagi donlar soni 2-3 baravar ko'p bo'lishi, 1000 ta donning massasi 10-15 grammga yuqori bo'lishi hamda don sifatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, donning shaffofligi 2-4 %, kleykovina 1,5-3,0 %, oqsil 1,0-2,3 % va un chiqishi 3,5-6,2 %ga oshganligi kuzatilgan.

Z.Sultanova [4] ning ta'kidlashicha, o'simliklarning tuplanish, naychalash, boshqoqlash davrlarida namlik yoki oziqa elementlarining yetishmasligi boshqoqdagi boshqoqchalar va don sonining kamayishiga olib keladi.

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi yumshoq bug'doyning noqulay iqlim sharoitiga chadamliligi, yuqori don hosili beruvchi navlarni ajratib olish, boshqoq strukturasini tahlil qilish va ishlab chiqarishga joriy etish.

Materiallar va uslublar. Tadqiqotlarda barcha kuzatuvlar tuproq va o'simlik namunalari tahlillari hamda hisob kitoblari "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2014) [5] qo'llanmasi asosida o'tkazildi. Dala tajribalari Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasida o'tkazildi.

Tajriba o'tkazilgan maydonning tuprog'i o'tloqi bo'z tuproqlardan iborat. Tajriba ob'ekti yumshoq bug'doyning Davlat reyestriga kiritilgan Краснодар-99 (nazorat), Алексеевич, Asr, Vexo va Mars navlari olingan. Tajriba tizimi 5 ta variantdan iborat bo'lib, 4 qaytariq, bir yarusda joylashtirildi. Bitta paykalning uzunligi – 37 m, eni 3,6 m bo'lib, umumiy maydon 134,0 m² ni tashkil qildi. Hisobga olingan maydon 67 m². Tajriba maydoniga mineral o'g'itlardan $N_{200}P_{120}K_{60}$ kg/ga sarflandi. Ekish muddati 15 oktyabrda, ekish me'yori 5,0 mln.dona (200 kg) urug' sarflandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Ma'lumki hosildorlikni yuqoriligini ta'minlab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri

Kuzgi yumshoq bug'doy navlarining boshqoq strukturasini baholash (2025 y)

№	Navlar	Boshqoq uzunligi, sm	Boshqoqdagi boshqoqchalar soni, dona	Boshqoqdagi donlar soni, dona	Boshqoqchadagi donlar soni, dona
1	Краснодар-99 (nazorat)	9,3	18,5	41,1	1,9
2	Алексеевич	9,8	19,7	44,2	2,2
3	Asr	10,4	18,9	45,7	2,4
4	Vexa	9,6	18,8	37,3	1,8
5	Mars	10,5	18,5	42,0	2,3

bu boshqoq strukturasidir. Tadqiqotlarimizda kuzgi yumshoq bug'doy navlari bo'yicha boshqoq strukturasida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Bug'doyning nazorat Краснодар-99 navida boshqoq uzunligi 9,3 sm bo'lgan bo'lsa, Алексеевич navida 0,5 sm, Asr navida 1,1 sm, Vexa navida 0,3 sm va Mars navida esa 1,2 sm yuqori bo'ldi.

Bir boshqoqdagi boshqoqchalar soni eng yuqori natija Алексеевич navida kuzatildi, bu nazorat navga nisbatan 1,2 dona yuqori bo'lganligi qayd etildi. Asr, Vexa va Mars navlarida bitta boshqoqdagi boshqoqchalar soni nazorat Краснодар-99 navidan sezilarli darajada ustunlikni namoyon etmadi.

Boshqoqdagi donlar soni bo'yicha yumshoq bug'doy navlari tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori natija Asr navida (45,7 dona) kuzatildi. Eng kam ko'rsatkich esa Vexa navida (37,3 dona) aniqlandi. Boshqoqchadagi donlar soni nazorat Краснодар-99 navida 1,9 dona, Алексеевич navida 2,2 dona, Asr navida 2,4 dona, Vexa navida 1,8 dona va Mars navida esa 2,3 dona bo'lganligi kuzatildi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi yumshoq bug'doyning Алексеевич, Vexa va Mars navlarini ekish yuqori va sifatli hosil olinishi isbotlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Макаров В.И. Бахорги буғдой ҳосилдорлиги ва доннинг сифатини азот ўғитини бўлиб берилишига боғлиқлиги // Дон экинлари журналы. 1998. №5. - Б. 18-19.
2. Саттаров М., Ҳалимов И. "Уруғ ва ўғит меъёри" // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналы. Тошкент. 2006. №5. Б. 18
3. Султанова З. Изучение продуктивности и соленакопления сортов яровой пшеницы при различных нормах высева в условиях приаралья // Агро илм. Тошкент, 2010. - №2(14). 6. 25
4. Хоразмий А., Шодмонқулов Ш. Ўғит меъёри, шароит ва ҳосилдорлик // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналы. -Тошкент, 2006. - №7.- Б. 18-19
5. Nurmatov Sh., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshayev Sh., Holiqov B., Niyozaliev B., Hasanova F., Mallabaev N., Tillabekov B., Ibragimov N., Abdualimov Sh, Shamsiev A., Isaev S. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent 2014. - Б. 175.